

# **PEDAGOG - XODIMLARNI KASBIY TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Xasanova Gulnoza Ilhom qizi**

**JDPI, Maktabgacha ta'lim metodikasi**

**kafedrasi o'qituvchisi**

**Ochilova Ruxshona**

**JDPI, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak pedagog – xodimlarni kasbiy tayyorlashning pedagogik asoslari xamda ularning kasbiy faoliyatiga kompitensiyaviy yondashuvining mazmuni xaqida so'z yuritilgan va uslubiy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ilmiy salohiyat, kommunikativ qobiliyat, ta'lim-tarbiya, kasbiy faoliyat, kasbiy bilim, malaka, ko'nikmalar , kasbiy tayyorgarlik, jamiyat va shaxs manfaatlari, strategik vazifalar, mutaxassislik, kasbiy sifatlar.

**Аннотация:** В статье рассматриваются педагогические основы профессиональной подготовки будущих учителей и содержание их компетентностного подхода к профессиональной деятельности, даются методические рекомендации.

**Ключевые слова:** научный потенциал, коммуникативные способности, образование, профессиональная деятельность, профессиональные знания, умения, профессиональная подготовка, интересы общества и личности, стратегические задачи, специализация, профессиональные качества.

**Annotation:** This article discusses the pedagogical basis of professional training of future teachers and the content of their competency-based approach to their professional activities and provides methodological recommendations.

**Keywords:** scientific potential, communicative ability ,education, professional activity, professional knowledge, skills, abilities, professional training, interests of society and the individual, strategic tasks, specialization, professional qualities.

## **KIRISH**

Xozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan texnika va axborot kamunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr tarbiyachisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik pisixologik bilimlarni, o'z ishini chuqr

bilishini va yuksak tafakkurini, siyosiy savoxonlikni, fkrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi. mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'limgartarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo'naliishi mustaqil fikr yurita oladigan, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo'ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilaydigan mutaxassislarni tayyorlash dolzARB masaladir. Bu esa pedagog xodimlarni tayyorlash xamda modernizatsiyalash va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish, zaruratini yuzaga keltiradi. Oliy ta'limgartarbiya muassasalarini va ulardagi ta'limgartarbiya jarayonini modernizatsiya qilish, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonidagi muhim vazifalardan hisobladi. Ayan oliy ta'limgartarbiya muassasalarining bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biri ham – bu bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdan iboratdir.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi – ularning zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o'ziga xos ko'rinishi bilan izohlanadi. Kasbiy tayyorgarlik o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. U aniq maqsadlar asosida rejalahtirilgan muayyan bosqichlarni o'zida qamrab oladi. Bo'lajak pedagog -xodimlarda kasbiy tayyorgarlikning shakllanishi dastlab kasbga xos tasavvur, tushunchalarni tarkib topganligi bilan belgilansa, keyinchalik mutaxassislikka oid bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zlashtirilishi, pedagog -xodimlaarning kasbiy sifatlarning qaror topishi hamda kasbiy moslashish darajasi bilan izohlanadi. Kasbiy tayyorgarlik bu – pedagog -xodimlarning maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi xisoblanadi. Bo'lajak pedagog -xodimlarda kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish – davlat ta'limgartarbiya standarti talablari asosida shaxsda maxsus nazariy

bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, bo'lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlash jarayoni disoblanadi. Kasb tanlash murakkab va motivatsion jarayon hisoblanib, shaxsning to'g'ri kasb tanlashi insonning hayotdan qoniqishi, pedagog -xodimlarning ijtimoiy mavqeini aniq belgilab olishiga sabab bo'ladi. Tadqiqotchi olim E.S.Chugunova ish joyini va pedagog -xodimlaarni kasbni tanlash motivlari klassifikatsiyasini ishlab chiqib, istalgan kasbiy faoliyatning sabablarini o'zida aks ettiruvchi kasb tanlash motivlarini quyidagicha belgilaydi:

- dominant (kasbga qiziqishning ustun turishi);
- vaziyat bilan bog'liq komformist;
- boshqa kasbiy motivatsiyalar (o'ziga yaqin ijtimoiy olamning ya'ni yaqinlari, do'st va tanishlarining maslahatlari bilan).

## NATIJALAR

Bo'lajak pedagog -xodimlarning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi ayni vaqtdagi amaliy tayyorligining asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham ta'lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish jarayonida talaba-yoshlarda kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish zarur bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimi deganda – aniq mehnat faoliyati doirasida bajariladigan ishlar uchun zarur bo'lgan axborotlar va o'zlashtirilgan nazariy ma'lumotlar birlashmasi tushuniladi. Bo'lajak pedagog -xodimlarning o'zlashtirish lozim bo'lgan kasbiy bilimlar mutaxassis shaxsining sifat darajasiga quyiladigan malakaviy talablar mazmunidan kelib chiqib belgilanishi kasbiy moslashtirish jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim mezon sanaladi. Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishslash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

## MUHOKAMA

bo'lajak pedagog-xodimlarning kasbiy tayyorlashda ixtisoslashgan tavsifnomasida ularning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan malakaviy talablardan kelib chiqib,

kasbiy bilimlar mazmuni quyidagi aspektlar bilan bog'liq holda belgilanishiga e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

- ❖ **nazariy** – pedagog –xodim ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadi, tamoyillari, shuningdek, qonuniyatlari, ta'limotlari, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalari xususidagi bilimlarni inobatga olish;
- ❖ **metodik** – pedagog –xodim o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, rejalashtirish va o'qitishning shakl, metod va didaktik vositalarini to'g'ri tanlash, talabalarning bilish motivatsiyasini shakllantirish bilan bog'liq bo'lган bilimlar; texnologik– aniq ta'lim sharoitida pedagogik vazifalarni, vaziyatlarni echa olish, rejalashtirilgan o'quv-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish bilan bog'liq bo'lган bilimlar;
- ❖ **prognostik** – ta'lim oluvchi shaxsi rivojlanishini oldindan loyihalashtira olish, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, mustaqil fikrli va ijodkor shaxsni tarbiyalashning ta'sir vositalarini oldindan bashoratlash bilan bog'liq bilimlar;
- ❖ **ijodiy-innovatsion** – pedagog –xodimlarning pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, o'qitish va tarbiyalashning yangicha shakl, metod va vositalarini yaratish bilan bog'liq amaliy bilimlarga egaliklarini inobatga olish.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xar qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga etkazish va uni malum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mexnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mexnat uzlusiz talim va tarbiyaviy faoliyatning maxsulidir. Bo'lajak pedagog-xodimlarning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish, kasbiy bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishdagi asosiy omil kasbiy sifatlarni rivojlantirish masalasi tadqiqot doirasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishda masalaning mazkur jihatlarini nazariy asoslash va bo'lajak mutaxassislarning kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

## **REFERENCE**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

Xasanova, G. (2021). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING MAZMUNIMAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI. *Мактабгача таълим журнали*, 4(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/4355>

Олий таълим муассасалари педагогларининг креатив кобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни Г Xасанова - Academic research in educational sciences, 2021

Цитируется: 17 Похожие статьи Все версии статьи (3)

Xасанова, Г. И. Қ. (2021). Болага йўналтирилган таълимни амалга оширишда тарбиячининг касбий компетентсиясининг ахамияти. Academic research in educational sciences, 2(9), 1051-1056.

Xasanova, G. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQINI GRAMMATIK TUZILISHINI SHAKLLANTIRISH. *Мактабгача таълим журнали*, 4(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/4430>

Gulnoza Xasanova, MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH, Мактабгача таълим журнали: Vol. 4 No. Preschool education journal (2021): Preschool education journal

Gulnoza Xasanova, OILADA BOLALARGA MILLIY TARBIYA BERISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI, Мактабгача таълим журнали: Vol. 3 No. Preschool education journal (2021)

Gulnoza Xasanova, TARBIYA TUSHUNCHASI, Мактабгача таълим журнали: Vol. 4 No. Preschool education journal (2021): Preschool education journal

Gulnoza Xasanova, SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR, Мактабгача таълим журнали: Vol. 3 No. Preschool education journal (2021)

Gulnoza Xasanova, МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARGA QO'L MEXNATI ORQALI AQLIY TARBIYA BERISHNING MAZMUNI, Мактабгача таълим журнали: Vol. 4 No. Preschool education journal (2021): Preschool education journal

Gulnoza Xasanova, МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR KITO BXONLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI, Мактабгача таълим журнали: Vol. 3 No. Preschool education journal (2021)

Gulnoza Xasanova, МАКТАБГАЧА TA'LIM TASHKILOTIDA BOLA NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI, Мактабгача таълим журнали: Vol. 3 No. Preschool education journal (2021)

Gulnoza Xasanova, МАКТАБГАЧА TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI МАКТАБГАЧА TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI, Мактабгача таълим журнали: Vol. 4 No. Preschool education journal (2021): Preschool education journal

Xasanova, G. (2021). «ПЕДАГОГ ТАРБИЯЧИЛАРНИНГ ИЛМИЙ ПЕДАГОГИК КОМПИТЕНТЛИКНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ МАЗМУНИ». *Мактабгача таълим журнали*, 1(1). Retrieved from <https://ruslit.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2809>